

5+1 tizimining amaliyotdagi ijrosi

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha Prezidentimiz tomonidan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni imzoladilar. Unga quyidagilar nazarda tutiladi:

- oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoiyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;
- oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;
- xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish.



Institutimizda ham ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ishlar jadal olib borilmoqda. Shu jumladan Institutimizning 2019 yil 30 sentabrdagi 6-majlis bayonining 12-bandiga asosan ya'ni Institutda talabalarni 5+1 (besh kun institutda va bir kun ishlab chiqarishda) tizimi asosida o'qitishni joriy etish. Shunga muvofiq 18-oktyabr kuni Institutimizning "Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari" kafedrasining 409, 410, 410a va 411 guruhlari kafedra professor-o'qituvchilari Sh.Muzafarov, A.Sanbetova, A.Babayev va A.Davirovlar hamrohligida "O'ZELEKTRTARMOQ" Unitar korxonasi 220/110/10 kv Keles podstansiyasida amaliyot darslarini olib borishdi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savolarini berishdi va ma'sul hodim tomonidan yetarlicha javoblarini olishdi. Ustozlar ham korxonada ishchilari bilan birgalikda o'zlarini fikrlarini bilddirdilar. Talabalar uchun dars judayam qiziq va ko'tarinki ruhda o'tdi.



Institut matbuot xizmati rahbari R.Jumaniyozov